



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 80 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

*Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI.....	60
Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI	68
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI	75
Mirabdullayeva Sh. A.	



SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI

Mirabdullayeva Sh. A.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti,
Harbiy pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Maqolada o'smirlik davrida shaxslararo munosabatlar jarayonida namoyon bo'ladigan salbiy emotsional holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Unda o'smirlarning affektiv beqarorlik, o'zini anglashdagi ziddiyatlar, empatiya darajasi, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va kommunikativ kompetensiya shakllanishidagi psixologik mexanizmlar tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada salbiy emotsional holatlarning (tajovuzkorlik, xavotir, yolg'izlik hissi, ichki ziddiyat) ijtimoiy omillar — oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, ijtimoiy tarmoqlar va madaniy qadriyatlar ta'sirida qanday shakllanishi hamda ularning o'smir shaxsining ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxslararo munosabatlar, emotsional kechinmalar, ijtimoiylashuv, o'smirlik davri, xarakter aksentuatsiyasi, dezadaptatsiya, xarakter tiplari, asotsial xulq, gipertim tip, senzitiv tip, emansipatsiya reaksiyasi, shizoid tip, astenik tip.

Abstract: The article explores the socio-psychological characteristics of negative emotional states manifested in the process of interpersonal relations during adolescence. It analyzes the psychological mechanisms underlying affective instability, intrapersonal conflicts, levels of empathy, and difficulties in social adaptation among adolescents. Furthermore, the study highlights how social factors — including family environment, peer group influence, digital interactions, and cultural values — contribute to the development of negative emotional states such as anxiety, aggression, loneliness, and emotional tension, thereby affecting the adolescent's socialization process.

Key words: interpersonal relationships, emotional distress, socialization, adolescence, accentuation of character, maladjustment, character types, antisocial behavior, hyperthymic type, type of sensitivity, response emancipation, schizoid type, astenik type.

Аннотация: В статье раскрываются социально-психологические особенности негативных эмоциональных состояний, проявляющихся в процессе межличностных отношений в подростковом возрасте. Рассматриваются механизмы формирования аффективной неустойчивости, внутренней конфликтности, уровня эмпатии и трудностей социальной адаптации у подростков. Особое внимание уделено влиянию социальных факторов — семейной атмосферы, группы сверстников, цифровой среды и культурных норм — на развитие таких негативных эмоциональных проявлений, как тревожность, агрессивность, чувство одиночества и эмоциональная нестабильность.

Ключевые слова: межличностные отношения, эмоциональные переживания, социализация, подростковый возраст, акцентуация характера, дезадаптация, типы характера, асоциальное поведение, гипертимный тип, сензитивный тип, реакция эмансипации, шизоидный тип, астеник тип.

KIRISH

Ma'naviy va jismoniy sog'lom avlod tarbiyasi negizida sog'lom shaxslararo munosabatlar, asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ushbu mezonlar esa shaxsning o'smirlik davrida faol shakllanadi.

Pubertat davr o'ziga xosligining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati yuzaga kelishi, o'smir uchun atrofdagilarning o'zi haqidagi mavjud fikrlarini sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos kelishi yoki kelmasligi bois ular da asabiylashish, qaysarlik, emotsional tanglik holatlari yuzaga keladi. Bu esa o'smirda o'zini o'zi past baholash, o'zining hoziri va kelajagidan fikriy qo'rquv, o'ziga past baho berish kabi salbiy holatlar asosida kelib chiquvchi shaxs xususiyatlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixolog olimlar M. Davletshin, G'. Shoumarov, E. G'oziyev, B. Qodirov, V. Karimova, R. Sunnatova, N. Safayev, Z. Nishonova. B. Umarov, G. To'laganova va boshqalarning tadqiqotlarida o'spirin shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining tarbiya jarayonini tashkil etishda shaxslararo munosabatlarning o'ziga xosligi

tadqiq etilgan. O'smirlik davri ikkinchi tug'ilish davri ham deb ataladi. O'smirlik shaxs rivojlanishining keskin (kritik) davri sifatida xavf omili hisoblanadi. Ko'pchilik o'smirlarga impulsivlik, emotsional beqarorlik, yuqori ishonuvchanlik xarakterlidir. Keyingi vaqtlarda psixologlarni o'smirlarning ta'lim jarayoniga nisbatan loqayd yoki salbiy munosabatlarning shakllanib borishi natijasida o'quv jarayoniga, tartib-intizomga rioya qilmasliklari, jamoat topshiriqlarini bajarishga qiziqishlarining kamayishi, ularning kayfiyatlaridagi beqarorlik bois ko'pincha tushkunlik holatiga tushib qolishlari xavotirga solmoqda.

D. Juravlyov o'smirlardagi bu o'zgarishlarni ijtimoiy dezadaptatsiya holati natijasida kelib chiqishini tavsiflab, "Dezadaptatsiya – bu patologik yoki ruhiy rivojlanishdagi og'ishlar bo'lmagan holat", – deb izohlaydi [2].

N.V. Vostroknutov o'smirlardagi dezadaptatsiya – bu o'smirning o'zidagi imkoniyatlarini namoyon eta olmasligi, tengdoshlari bilan munosabatlarda o'z o'rnini topa olmasligi oqibatida kelib chiqishini ta'kidlagan [3]. O'smirlik davrida dezadaptatsiya holatlari kelib chiqishining asosiy mezonlaridan biri sifatida shaxslararo munosabatlardagi turfa nizoli vaziyatlarni yuzaga kelishi asnosida shakllanuvchi o'quv faoliyati, o'z hayotiy maqsadlariga nisbatan emotsional munosabatlardagi buzilishlar, loqayd, passiv, negativ e'tirozlarning ortishi, o'qish jarayoniga nisbatan namoyishkorona mensimaslik munosabatlari shaklida namoyon bo'lishini aniqlaganlar. Ma'lumki, shaxslararo munosabatlarga ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri affektiv qo'zg'aluvchanlik bo'lib, bu holat me'yorda ham kuzatiladi. Uning vujudga kelishi, mazkur yosh bosqichi vegetativ endokrin tizimining qayta qurilishi bo'lsa, psixologik o'zgarishlar portlash va agressiyaga (tajovvuzkorlik) moyil bo'lgan affektiv qo'zg'aluvchanlikdir. Bu holat ko'pincha ijtimoiy adaptatsiyaning (moslashishning) buzilishini, jumladan, jinoiy xatti-harakatlar, qonunbuzarlikning sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ammo psixik sog'lom ijtimoiy muhitning qulay sharoitlarida tarbiyalanayotgan o'smirlarda affektiv qo'zg'aluvchanlik adaptatsiyaning buzilishiga olib kelmaydi [4].

O'smirlar mavjud «qadriyatlarni qayta baholash»ga moyil bo'lib, mashaqqat bilan jamiyatdagi o'z o'rinlarini izlashadi, «hayot mazmuni»ni anglashga harakat qilishadi. Ularning ijtimoiylashuv jarayonida ma'lum bir qadriyatlar tizimini shakllantirishda oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati yuqoridir. O'smirlik davrida ijtimoiy munosabatlarga kirishish, ijtimoiy rollarni anglash, jamiyatdagi muhim ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish jarayoni tezlashadi.

Oilada emotsional inkor etilganlik holati, himoyalanmaganlik, tark etilganlik, turg'un qo'rquv kabi salbiy emotsiyalarning yuzaga kelishi, ijtimoiylashuvning buzilishi, stress va frustratsiyaga zaif tolerantlik, affektiv reaksiyalarni nazorat qilishning pasayishi, o'z qadr-qimmatini his qilishning yetarlicha rivojlanmaganligi, himoya mexanizmlarining zaiflashuvi, o'spirinda o'z kuch va imkoniyatlariga ishonmaslikni tug'diradi. Bunday hissiyot o'smirlikda destruktiv xulq modelini – «jazoni qidirish», autoagressiya yaqin ijtimoiy muhitdan begonlashuv, g'yohvand moddalarga ishtiyoq va asotsial ijtimoiy harakatlarni keltirib chiqaruvchi salbiy ideallar tarzida namoyon bo'ladi.

Jumladan, emansipatsiya reaksiyasi ta'sirida o'spirinning oilaviy munosabatlardan uzoqlashuvi, bir vaqtning o'zida o'spirinning yaqin, emotsional "ideal iliq" munosabatlarga ehtiyoj sezishi, uni oila muhitidan ajralib chiqishga va iliq psixologik muhitni uydan tashqarida, ko'pincha, asotsial xulq-atvorli katta yoshdagi kishilar davrasidan qidirishiga sabab bo'ladi. Natijada oiladagi shaxslararo munosabatlar tizimining keskinlashuvi va kuchayishiga olib keladi.

Doimiy nazorat va mustaqillikka nisbatan ehtiyojlar o'rtasidagi nomutanosiblik nizolar, ota-ona o'rtasida o'smir ta'lim-tarbiyasi haqida yagona bir fikrning bo'lmashligi (do'stlar orttirish, ta'lim muassasini tanlash, kiyinish, musiqa tanlash borasida) o'smir bilan do'st bo'lishga intilgan ota-onalar iborat, lekin ko'p hollarda ma'ruza shaklidagi "da'vat"ga nisbatan uning e'tirozli xulqi shartli manfaatli simptom (belgi) rolini o'ynab, destruktiv xulq ko'rinishlarining biriga aylanadi.

Muloqotda u yoki bu o'ringa ega bo'lish, o'smir shaxsiga, uni psixikasining moslashish qobiliyatiga, o'zi istagan munosabatlarga erishish uchun ongli tarzda oshiriladigan xatti-harakatiga va individga atrofdagilar beradigan bahoga bog'liq. Shu o'rinda, avvalo shuni ta'kidlash lozimki, o'smir hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmaganligi sababli hamma vaqt ham atrofdagilar undan qanday ko'rinishdagi harakatni kutishayotganini anglashga muvaffaq bo'la olmaydi. O'zi egallagan ijtimoiy o'rnidan qoniqish darajasi o'smirni muloqotda aynan nima qiziqtirishi, u nimaga yo'nalganligi, nimadan uzoqlashishga intilishi va qaysi muhitda uning bunga erishishiga bog'liq.

O'smirlarda ikkinchi darajalilik hissi, tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlardagi ijtimoiy mavqeidan qoniqmaslik kabi kechinmalari ulardagi salbiy hissiy holatlarning kelib chiqishiga, faolligining sustlashishiga yoki salbiy yo'naltirilishiga sabab bo'lishi mumkin. O'smirlar o'zlariga yaqin, ishonchli do'stga ega bo'lishga intiladilar va shoshmashosharlik bilan do'stlarini almashtiradilar. Odatda ular o'z do'stlaridan o'xshashlikni, tushunishni, shaxsiy kechinmalari va shart-sharoitlarining qabul qilinishini qidiradilar. Do'st nafaqat o'zini yaxshi tushunishiga, balki o'z kuchiga ishonish, o'z qadriyatlaridagi shubhalarni yengib o'tishga, o'zini shaxs sifatida his qilishiga yordam beradi [5,6].




L.I. Bojovich o'smir va o'spirinlik davrini tasvirlar ekan, asosiy e'tiborni shaxs motivatsion sohasining rivojlanishi, hayotda o'z o'rnini belgilash, dunyoqarashning shakllanishi va uning biror faoliyatiga ta'siri, o'zini o'zi anglash va axloqiy ongiga shuningdek, u shakllanayotgan shaxsiy «ichki pozitsiyasi» dinamikasiga qaratadi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

O'smirlar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlar jarayonidagi nizolarning yuzaga kelish sharoitlarini tadqiq etishda shaxslilik jabhasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O'smirlik davrida individual-psixologik xususiyatlar asosida uchrab turadigan xarakter aksentuatsiyasi, ulardagi shaxslararo munosabatlar jarayonida ko'zga tashlanadi. Qator tadqiqotlarda ko'rsatiladiki, aksentuatsiyaning turli tiplari shaxslararo nizolarning yuzaga kelishi asosida emotsional holatlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Psixologlar o'tkazgan empirik tadqiqotlar natijalarida shaxslararo nizolar: a) qiyin oilaviy vaziyat (12 %); b) murakkab romantik vaziyat (18 %); v) tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlar (15 %); g) ayniqsa, norasmiy guruhlardagi noxush munosabatlar (8 %); d) katta yoshdagilar, jumladan, o'qituvchilar bilan ham salbiy munosabatlar (10 %); ye) sodir etilgan huquqbuzarlik yoki qonunbuzarlikdan qo'rqish va uyalish (7 %); yo) mastlik yoki giyohvandlik vositalarini qabul qilish (8 %) va boshqalar, jumladan, aniqlanmagan sabablar (22 %) ni tashkil etishini ko'rsatgan [3].



Xarakterning paranoyal tipiga mansub o'smirlar ko'p holatlarda shaxslararo nizolar ishtirokchilari bo'lib qoladilar. Umuman olganda, bu holat ularda o'smirlik davri uchun tabiiy hisoblangan muomalaga bo'lgan ehtiyoj zaif rivojlanganligi oqibatida ro'y beradi. Bunday o'smirlar odatda keskinligi va o'zlarining nizolarga moyilliklarini baholashda tanqidni umuman bilmasliklari bilan ajralib turadilar.

O'smirning karakterologik xususiyatlarini o'rganish natijalariga ko'ra quyidagilarni ta'kidlash mumkin.

Gipertim tipiga mansub o'smir uchun kayfiyatning pastligi va depressiv affektlarga moyillik xos ekan, ularda nizoli holatlarning yuzaga kelishiga, asosan, uzoq muddatli iztirob va alam hamda ularga xos tanqidiylik sabab bo'ladi. Ular ishtirokidagi shaxslararo nizolar odatda uzoq muddat davom etadi va surunkali xarakterga ega bo'ladi.

Gipertim tipdagi o'smir xos shaxslararo nizolarning yuzaga kelishiga, ularning xatti-harakatlari va gaplariga tanqidiy fikr bildirish, psixik va jismoniy zo'riqish, shuningdek, shakllangan sharoitlarning majburan o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar sabab bo'ladi. O'spirindagi aksentuatsiya qoidaga ko'ra surunkali, yashirin, shaxslararo nizolarda kamdan-kam ishtirok etishlari bilan hamohanglikda kechadi. Ulardagi emotsional holatlar odatda tez va jo'shqin kechadi. Bu o'smirlar o'z tengdoshlari bilan shaxslararo nizolar qatnashchisiga aylanadilar va bu holat ko'proq turg'un qoida va normalarni o'zgartirish talab etiladigan va-ziyatlarida yuzaga keladi (boshqa ijtimoiy muhitga tushganda), shuningdek qattiq guruh ichidagi raqobat vaziyatida ham, ularning xatti-harakatlari tanqid qilinganda ham shu holat ro'y beradi. Ularning xulq-atvori atrofidagilarning xatti-harakatlariga nisbatan javob reaksiyasi bo'lib, bu shaxsning kamsitilishi sifatida affektiv idrok etilib, o'z qiyinchiliklarini o'zgalarning kamchiliklari oqibati tarzida tasavvur qilishga moyillik bilan kuzatiladi. Bu tipdagi o'smirlar, ko'pincha, egotsentrist, shuhratparast bo'lib, ular tomonidan u yoki bu tarzidagi mas'uliyatni olish masalasi psixologik korreksiya jarayonida asosiy qiyinchilikka sabab bo'ladi.

Xarakterning isteroid tipi mavjud o'smirlar shaxslararo nizo sharoitida namoyishkoronaligi va yuqori darajadagi harakatchanligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha aynan isteroid tipdagi o'smirlar shaxslararo nizolar tashabbuskori bo'ladilar. Bu o'smirlar nizoli vaziyatlarda garchi o'zlarining noxaq ekanliklarini bilsalarda, o'zlarining haq ekanliklarini isbotlashga harakat qiladilar.

Shizoid tipli o'smirlar o'z tengdoshlari bilan shaxslararo nizolarda kamdan-kam qatnashadilar. Bu holat, birinchidan, ularning chetda yurishlari va past darajadagi kommunikativ faolliklari tufayli, ikkinchidan esa odatda bunday o'smirlarning do'stlari kattaroq yoshdagi odamlar bo'lishi bilan tushuntiriladi. Bunday o'smirlarda xulq-atvorning nizoli shakllari ichki guruhiiy turmush sharoitlarini o'zgartirishni talab qiluvchi va asosan mavqeni saqlab qolishga yo'naltirilgan vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Natijada o'z ichki dunyosiga berilib ketish; ichki mezonlarga yo'nalganlik; atrofdagilarni intuitiv tushunish qobiliyatining yo'qotilishi; vaziyatni real baholashdagi qiyinchilik; emotsional javob qaytarishning nomutanosibligi; emotsional nazoratning past darajasi; xavotirlanish kabilarda namoyon bo'ladi.

Psixoastenik tipli o'smirlar shaxslararo munosabatlar jarayonida nizoli vaziyatlardan chetda bo'lishga harakat qiladilar. Bu esa ularga nisbatan bir tomonlama nizoli xatti-harakatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi ehtimolini oshiradi. Xulq-atvorning nizoli shakllari ularda uzoq muddatli psixik va jismoniy zo'riqish bilan bog'liq vaziyatlarda, noaniqlik sharoitida, o'smirlarning hamda ularning xulq-atvorlarini atrofdagilar tomonidan ochiqchasiga tanqid qilinganda dolzarblashadi. Senzitiv tipli o'smirlar tashqi ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan juda ta'sirchan bo'ladi. Ular odatda o'zini o'zi baholashning nomuqim past darajasiga ega bo'ladi, nizoli vaziyatlar kelib chiqishidan va ochiq nizoli xatti-harakatlarning kuchayishidan qochadilar. Ulardagi nizolarga moyillikning asosiy psixologik sababi yuqori darajadagi ijtimoiy shaxslararo munosabatlardan qoniqmaganlik hissining tarkib topishidir. Bunday o'smirlar uchun nizolarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladigan vaziyatlar, ular uchun ahamiyatli bo'lgan odamlar oldida ularni tanqid qilish yoki ustidan kulish hamda guruh ichidagi raqobatli munosabatlardan kelib chiqadi.

Konform tipli o'smirlar, odatda shaxslararo munosabatlardagi turli ko'rinishdagi nizolardan chetda bo'lishga harakat qiladilar. Ularni faqat ana shu nizoli vaziyatlarga "tortishganda"gina aralashib qoladilar. Masalan, o'z mikrogruhi tarkibida nizolashayotgan tomonlardan birining tomoniga o'tadi. Ochiqdan-ochiq hissiyotlarini namoyon etishga shoshilmaydi. Astenik tipdagi xarakter egalari uchun tez toliqish, qo'zg'aluvchanlik xos bo'lib, bu toifa o'smirlar shaxslararo muomalada ko'pincha uyatchan, tortinchoq, ko'ngilda kek saqlamaydigan bo'lishadi. Yuqori darajali psixik zo'riqish vaziyatida ularda ko'pincha shaxslararo nizolarga olib keluvchi affektiv portlash kuzatiladi [3.4.5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'kidlash joizki, o'zgaruvchan xarakter egalari bo'lgan o'smirlarda esa nizoli vaziyatlar ularning izzat-nafsoniyati toptalganda, jazolanish xavfi mavjudligida yuzaga keladi. Shuningdek, guruh ichida raqobat kuchayganda va surunkali muvaffaqiyatsizliklarga duch kelganda ham nizoli vaziyatlar ehtimoli ortadi, holatning keskin o'zgarishi sharoitida, yuqori yuklamalar berilgan, shuningdek, muvaffaqiyatsizlikka yo'liqqan vaziyatlarda yuzaga keladi. O'smir ruhiy dunyosida paydo bo'ladigan bunday holatlar balog'at davrida me'yorga kelib qoladi. O'smir ta'lim tarbiyasi uchun mutasaddi bo'lgan mutaxassislar, ijtimoiy xizmat xodimlari, ota-onalar ushbu murakkab davrning o'ziga xos xususiyati haqida zarur psixologik bilimlarga ega bo'lishi va o'spirin bilan jiddiy munosabatda bo'lishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – T.: 2002 y.
2. Березин Ф.Б., Мирошников М.П. Методика многостороннего исследования личности. М.: Фолиум, 1994. – 175
3. Леонгард К. Акцентуированные личности. Пер. с нем. - Ростов на Дону: «Феникс», 1997. – 544 с.
4. Липунова О.В. Психология, диагностика и коррекция отклоняющегося поведения: Практическое пособие. – Комсомольск-на-Амуре: Изд-во Комсомольского-на-Амуре гос. пед. ун-та, 2002. – 65 с.
5. Осипова А. Введение в психокоррекцию. Воронеж, 2000. – 320с.
6. Роджерс К.Р. Клиентоцентрированная терапия: Пер. с англ. - М.: «Рефл-бук», 1997.
7. Собчик Л.Н. Метод цветowych выборов. Модифицированный цветовой тест Люшера: Ме-тодическое руководство. – М., 1996. – Вып.2. – 8 с.
8. Франкл В. Психотерапия на практике. - СПб.: «Ювента», 1999. – 256 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.